

**AHOLI ORASIDA QON VA QON YARATUVCHI A'ZOLAR
KASALLIKLARI HAMDA IMMUN MEXANIZMGA ALOQADOR
AYRIM BUZILISHLAR (Surxondaryo viloyatida misolida)**

J.J.Jalilov

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali assistenti

A.U. Xursandov., M.A. Murodov., I.Z. Toshtemirova.,

Sh.J. Yo'ldoshev., J.K. Himoydinov

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali talabalari

Qon va qon yaratuvchi a'zolar kasalliklari bugungi kunda Yer yuzida yashovchi insonlar orasida keng tarqalib borayotgan kasalliklardan biri bo'lib, bu kasalliklarning ma'lum turlari bilan kasallanib kelmoqdalar. Xususan, immun mexanizmga aloqador ayrim buzilishlar bilan kasallanish XXI asrda aholi orasida ko'payib borayotganligi xechkimda sir emas.

O'zbekiston Respublikasining janubiy viloytalaridan biri bo'lgan Surxondaryo viloyati aholisi orasida Qon va qon yaratuvchi a'zolar kasalliklari 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra 4,2% ni tashkil qilib, asosan qishloq aholisi orasida bu kasallik keng tarqalgan.

Viloyat aholisi orasida qon va qon yaratuvchi a'zolar kasalliklari hamda immun mexanizmga aloqador ayrim buzilishlar aholining 18-29 yoshdagilar orasida 10,3% ni, 65 yosh va undan oshganlarda 5,9% ni, ayollarda 66,7% ni bu turdagi kasallik bilan kasallanganliklari aniqlandi.

Qon va qon yaratuvchi a'zolar kasalliklar hamda immun mexanizmga aloqador ayrim buzilishlar qishloqlarda yashovchi aholining 6,2% ni tashkil qilib, ulardan ayollar 66,9% ni tashkil qiladi.

Viloyat aholisi orasida qon va qon yaratuvchi a'zolar kasalliklar hamda immun mexanizmga aloqador ayrim buzilishlar birinchi marta aniqlanganlar, ya'ni avval bu kasallik bilan og'rimagan, tekshiruv yoki ko'rik natijasida aniqlanganlar 54,8% ni tashkil qildi, ulardan, 18-29 yoshdagilar 11,3% ni, 65 yosh va undan yuqoridagilar orasida 6,4% ni hamda ayollar 66% da ekanligi aniqlandi.

Viloyat aholisi orasida qon va qon yaratuvchi a'zolar kasalliklari hamda immun mexanizmga aloqador ayrim buzilishlar shahar aholisiga nisbatan qishloq aholisi orasida keng tarqalganligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich birinchi marta aniqlanganlar orasida 56,4% ni tashkil qildi. Viloyat qishloqlarida yashovchilar shu kasallik bilan og'rigan ayollarning 55,9% da birinchi marta aniqlangan.

Qon va qon yaratuvchi a'zolar kasalliklari hamda immun mexanizmga aloqador ayrim buzilishlarning asosiy qismini kamqonlik kasalligi egallaydi. Qon va qon yaratuvchi a'zolar kasalliklari hamda immun mexanizmga aloqador

ayrim buzilishlarning 89,7% ni kamqonlik tashkil etadi. Kamqonlik kasalligi bilan kasallanganlar orasida 18-29 yoshlilar 9,8% ni, 65 va undan yuqori yoshlilar 6,5% ni, ayollar 67% ni tashkil qiladi.

Surxondaryo viloyati qishloq aholisining 5,5% i kamqonlikdan aziyat chekadilar, ulardan kamqonlik tashxisi qo‘yilgan ayollar 67,3% ni tashkil qildi. Viloyat aholisi orasida kamqonlik birinchi marta aniqlanganlar, ya’ni avval bu kasallik bilan og‘rimagan, tekshiruv yoki ko‘rik natijasida aniqlanganlar 51,8% ni tashkil qilib, ulardan, 18-29 yoshdagilar 10,7% ni, 65 yosh va undan yuqoridagilar orasida 7,5% ni hamda ayollar 66,3% ni tashkil qildi.

Surxondaryo viloyati qishloq aholisining 53,2% da kamqonlik birinchi marta aniqlangan. Qishloqlarida yashovchilar shu kasallik bilan og‘rigan ayollarning 49,4% da birinchi marta aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda, qon va qon yaratuvchi a‘zolar kasalliklari, immun mexanizmga aloqador ayrim buzilishlar Surxondaryo viloyati aholisi orasida uchrash ko‘rsatkichi shahar aholisiga nisbatan qishloqlarda yashovchilar orasida ko‘p uchrashi qayt etildi. Bu kasallik bilan viloyat aholisi orasida jins bo‘yicha tahlil qilinganda 18-29 yoshlilar va 65 va undan yuqori yoshlilarda ayollar 67% ni tashkil qilib, erkaklarga nisbatan ko‘p kasallanishlari aniqlandi.

Qon va qon yaratuvchi a‘zolar kasalliklari, immun mexanizmga aloqador ayrim buzilishlarini shahar va qishloq aholisi orasida kamaytirish maqsadida profilaktik chora tadbirlar ishlab chiqib, aholi orasida keng qamrovli tushuntirish ishlari olib borilsa kasallanish ko‘rsatkichi bir muncha kamaygan bo‘lardi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Viloyat sitatistika qo‘mitasining 2020-2023yil 1-iyul ma’lumotlari.
2. Jalilov J.J. Ibragimov A.U. Aholisi salomatligiga Tojikiston alyuminiy zavodi zaharli gazlarining ta’siri (Surxondaryo viloyatining shimoliy tumanlari misolida) // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. Toshkent-2021 yil. 32-35 b.